


## Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

( 2020-yil yanvar)

2020-yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **261,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,3** % ni tashkil etdi.




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **14,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **51,7** % ga kam ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,6** %, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **5,8** % punktga kamaygan.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **78,2 %** i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan **106,2 %** ni tashkil etgan holda **191,2** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamayib, **21,2 %** ni tashkil etdi va **55,6** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **114,7 %** ni tashkil etgani kuzatildi.

## Tashkilot turlari bo'yicha qurilish ishlari




O'sish sur'ati % da

Jamiga nisbatan % da





Davlat va nodavlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




○ Nodavlat mulk


○ Davlat mulki

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **6,9** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan **122,3 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **254,4** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **100,9 %** ni, ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **2,6 %** va **97,4 %** ni tashkil etdi.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 66,4 % i yoki 173,4 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 5,6 mlrd. so`m ishlar bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 38,2 % tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo`yicha yangi qurilish hisobidan 113,0 mlrd. so`m, yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 59,1 % tashkil etdi.



Norasmiy sektor hissasiga 54,8 mlrd. so`m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,6 % ni tashkil etdi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2020-yil yanvar

70,1 %

Bino va inshootlar qurish  
bo'yicha qurilish ishlari

183,2  
mlrd. so'm

9,6 %

Fuqarolik obyektlarini qurish  
bo'yicha qurilish ishlari

25,1  
mlrd. so'm

20,3 %

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

53,0  
mlrd. so'm


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish loyihamalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun moljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona va  
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko'payib, **67,7 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ushbu faoliyatdagi ulushi **33,0 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **2,0 %** ga kamayish kuzatiladi.




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi, % da)

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **12,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **11,0 %** punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turidan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi **87,8 %** ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **11,0 %** punktga kamayish kuzatiladi.




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(ulushi % da)

2019-yil yanvar



2020-yil yanvar



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona va  
mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **19,8 %** punktga kamaydi va **14,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **86,0 %** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **19,8 %** punktga ko`paydi.

## Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlari

( 2020-yil yanvar )

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan korxonalar turlari bo'yicha:		
		Yirik qurilish korxonalari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>261,3</b>	<b>14,5</b>	<b>191,2</b>	<b>55,6</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>109,7</b>	<b>2,3</b>	<b>96,0</b>	<b>11,4</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Amudaryo</b>	<b>12,7</b>	<b>0,1</b>	<b>9,5</b>	<b>3,1</b>
<b>Beruniy</b>	<b>16,0</b>	<b>0,1</b>	<b>8,1</b>	<b>7,8</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>0,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>0,4</b>
<b>Qorao`zak</b>	<b>5,7</b>	<b>-</b>	<b>5,1</b>	<b>0,6</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>3,0</b>	<b>0,1</b>	<b>1,7</b>	<b>1,2</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>26,8</b>	<b>8,1</b>	<b>14,7</b>	<b>4,0</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>3,8</b>	<b>0,3</b>	<b>2,2</b>	<b>1,3</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>2,7</b>	<b>0,5</b>	<b>1,2</b>	<b>1,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>12,2</b>	<b>-</b>	<b>7,4</b>	<b>4,8</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>9,6</b>	<b>2,8</b>	<b>5,3</b>	<b>1,5</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>8,3</b>	<b>-</b>	<b>8,1</b>	<b>0,2</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>19,7</b>	<b>0,1</b>	<b>14,6</b>	<b>5,0</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>10,0</b>	<b>0,1</b>	<b>1,7</b>	<b>8,2</b>
<b>Chimboy</b>	<b>4,4</b>	<b>-</b>	<b>3,0</b>	<b>1,4</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>3,9</b>	<b>-</b>	<b>3,3</b>	<b>0,6</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>12,4</b>	<b>-</b>	<b>9,3</b>	<b>3,1</b>


## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

( 2020-yil yanvar )

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'sish sur`ati, foizda	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>261,3</b>	<b>101,3</b>	<b>100,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>109,7</b>	<b>100,3</b>	<b>42,0</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Amudaryo</b>	<b>12,7</b>	<b>101,8</b>	<b>4,8</b>
<b>Beruniy</b>	<b>16,0</b>	<b>113,6</b>	<b>6,1</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>0,4</b>	<b>101,8</b>	<b>0,1</b>
<b>Qorao`zak</b>	<b>5,7</b>	<b>93,2</b>	<b>2,2</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>3,0</b>	<b>108,8</b>	<b>1,2</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>26,8</b>	<b>90,2</b>	<b>10,3</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>3,8</b>	<b>104,0</b>	<b>1,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>2,7</b>	<b>122,2</b>	<b>1,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>12,2</b>	<b>110,5</b>	<b>4,7</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>9,6</b>	<b>94,5</b>	<b>3,7</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>8,3</b>	<b>96,3</b>	<b>3,2</b>
<b>To'rtkul</b>	<b>19,7</b>	<b>109,9</b>	<b>7,6</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>10,0</b>	<b>115,3</b>	<b>3,8</b>
<b>Chimboy</b>	<b>4,4</b>	<b>94,1</b>	<b>1,7</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>3,9</b>	<b>98,8</b>	<b>1,5</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>12,4</b>	<b>100,6</b>	<b>4,7</b>

*Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari*



Shaharlar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur`atlari qayd etilgan qurilish ishlari

Mo'ynoq tumani (122,2 %):

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-yanvardagi 37-sonli qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;

### Xo'jayli tumani (115,3 %):

-Xo'jayli tumanida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatiladi, bu kanallar qazish va rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash va tiklash ishlari, shuningdek kichik korxonalar tomonidan bajarilayotgan qurilish ishlari hisobiga amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish ishlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, respublika bo`ylab hamma tumanlarda qurilish , yangi qurilish, rekonstruksiya ishlari davom etmoqda, bularga:

- “Amudaryo o’zanida kichik suv havzalarini barpo qilish, faza-2” loyihasini amalga oshirish;
- Ustyurt tekisligida neft va gaz quduqlarini qidiruv hamda burg’ulash ishlari va boshqalar hisobiga yuqori o'sish sur`atlari kuzatiladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (71) 230-82-13**

**(71) 230-82-14**

**(61) 222-75-91**